# MARKETING

ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL



INNOVATSIYA

BRENDING

MARKETING

BIZNES

SAVDO

RAQAMLI MARKETING

ELEKTRON TIJORAT

№3-SON

2025-YIL, MART

9710 xalqaro daraja

№240874

ISSN: 3060-4621



2025-YIL
MART
№ 3-SON

# Marketing

## ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL

*ELEKTRON NASHR. 28-MART, 2025-YIL*

### JURNALNING MAQSADI

Tadbirkorlik-biznes faoliyatini tashkil etishning marketing asoslarini, yo‘nalishlari, echimlari, vositalarini yaratish va rivojlantirish

### ALOQA UCHUN MA’LUMOTLAR

TEL: (97) 783-84-64
VEB-SAYT
www.marketingjournal.uz
ELEKTRON POCHTA:
info@marketingjournal.uz
TELEGRAM BOT:
@marketinjournalbot
TELEGRAM KANAL:
https://t.me/tdiumarketingjournal

### MUASSIS

“Tadbirkor va ishbilarmon” MCHJ

### JURNALNING ILMIYLIGI

Marketing jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining **2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

### INDEKSATSIYA

Google Scholar
ORCID
doi
Member of Crossref
OPEN ACCESS
OpenAIRE

### BOSH MUHARRIR

**Xakimov Ziyodulla Axmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

### BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI:

**Yusupov Muxamadamin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;

### TAHRIR HAY’ATI:

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori;
**Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna**, i.f.d., prof., TDIU Marketing kafedrasi mudiri;
**Soliyev Axmadjon Soliyevich**, i.f.d., NaMTI Marketing kafedrasi professori;
**Ikramov Murad Akramovich**, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasi professori;
**Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich**, i.f.d., prof., TDIU Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasi mudiri,Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a’zosi;
**Zarova Elena Viktorovna**, i.f.d., G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti professori,Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a’zosi
**Akramov Tohir Abdirahmonovich**, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasi professori;
**Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi**, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasi professori;
**Samadov Asqarjon Mishomovich**, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasi professori;
**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo‘ja qizi**, i.f.n., dots., TDIU Kengash kotibi;
**Sobirov Azizbek Avazbekovich**, PhD., TDIU Marketing kafedrasi dotsenti;
**Sadikov Shoxrux Shuxratovich**, PhD, dots., TIU Departament boshlig‘i;
**Musyeva Shoira Azimovna**, i.f.n., SamISI Marketing kafedrasi professori;
**Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o‘g‘li**, PhD., TDIU Marketing kafedrasi dotsenti;
**Djurabayev Otabek Djurabayevich**, i.f.d., TDIU Innovatsion menejment kafedrasi dotsenti;
**Karimova Shirin Zoxid qizi**, PhD, TDIU Axborot texnologiyalari kafedrasi katta o‘qituvchisi;
**Usmonov Bunyod Aktam o‘g‘li**, PhD , TDIU Moliyaviy tahlil kafedrasi v.b.dotsenti;
**Dehqonov Burxon Rustamovich**, PhD., TDIU Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limi bosh mutaxassisi;
**Turobova Hulkar Rustamovna**, PhD., BuxDU, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasi dotsenti;
**Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbaevich**, DSc., Namangan muhandislik-qurilish instituti dotsenti;
**Fayzullayev Javlonbek Sultonovich**, DSc., TDIU, Yashil iqtisodiyot kafedrasi dotsenti;
**Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich**, DSc., TDIU, “Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik” kafedrasi professori
**Bobojonov Azizjon Babaxanovich**, DSc, TDIU, “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti
**Allayarov Shamsiddin Amanullayevich**, DSc, prof., TDIU, “Savdo ishi” kafedrasi mudiri

**Jumaev Olimjon Sadulloevich**, DSc, Raqobat siyosati va iste’molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi direktori
**Eshov Mansur Po‘latovich**, i.f.d., prof., Alfraganus universiteti “Menejment va marketing” kafedrasi mudiri
**Kucharov Abrorjon Sobirjanovich**, TDIU biznes boshqaruvi va logistika kafedrasi professori
**Nazarova Ra’no Rustamovna**, TDIU “Yashil” iqtisodiyot kafedrasi mudiri, Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Elektron nashr** 670 sahifa. E’lon qilishga 2025-yil 28-martda ruxsat etildi

# MUNDARIJA

**OZIQ-OVQAT MAXSULOTLARI EKSPORTINI MARKETING STRATEGIYALARI ASOSIDA OSHIRISH YO‘LLARI ............................................9**
**Yunusov Baxodir Marisovich**

**ENHANCING EXPORT STRATEGIES FOR LIGHT INDUSTRY ENTERPRISES...........................................................................................................22**
**Djurabaev Otabek Djurabayevich**

**BALIQCHILIKDA BIOLOGIK AKTIVLAR HISOBI VA ICHKI NAZORATINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH......................29**
**Dusmuratov Radjapbay Davlatbayevich, Aitimbetov Amirbek Qoishibekovich**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ISHLAB CHIQARISH KORXONALARINING IQTISODIY RIVOJLANISHINING STATISTIK TAHLILI ..........................................................................................................37**
**Egamshukurov Zayniddin Sodikovich**

**KORXONA MAHSULOTLARI ISTE’MOLCHILARI MOTIVATSIYASIDA CHEKLI ALMASHTIRISH NORMASI MASALALARI..........................................45**
**Jalilov Jamshid G‘anijonovich**

**MINTAQADA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH HAMDA AHOLI TURMUSH FARAVONLIGINI OSHIRISHDA TURIZM INFRATUZILMASI ROLINI BAHOLASH.......................................................................................................52**
**Jumaniyazova Sharifa Rashidovna**

**DIGITAL MARKETING TOOLS AND BUSINESS DEVELOPMENT STRATEGIES.........................................................................................................61**
**Khudoyarova Ziyoda Maratovna, Erkaboyeva Jasmina Safarali qizi**

**KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISH NAZARIY ASOSLARI VA XORIJIY TAJRIBALARI..............................................68**
**Mirazimova Zulfiya**

**TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA IT TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING MOHIYATI.....................................................................79**
**Musirmanov Shohboz Usmon o‘g‘li**

**AHOLINING TURMUSH DARAJASI VA FARAVONLIGINING ASOSIY KO‘RSATKICHLARI VA DINAMIKASI ...........................................................86**
**Muxamedova Muslima Maxmudovna**

**DEVELOPMENT STRATEGIES FOR GLOBAL COMPANIES IN CURRENT CONDITIONS.......................................................................................................96**
**Nasimov Bakhtiyor Vasiyevich**

**QISHLOQ XO‘JALIGIDA PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASTERLARINI RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI..............................................................104**
**Qurbonov Alisher Boboqulovich**

**ZAMONAVIY RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH SHAROITIDA SUG‘URTA KOMPANIYALARI UCHUN SAMARALI MARKETING STRATEGIYALARI ......110**
**Rashidova Dildora Rasul qizi**

**ELEKTRON TIJORATNI RIVOJLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLARNI ANIQLASH ......116**
**Ravshanova Muhayyo Maxmanazarovna**

**TELEKOMMUNIKATSION VOSITALAR ISHLAB CHIQARISH KORXONALARINING INNOVASION FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH......122**
**Shaislamova Muazzamxon Raximxodjaevna**

**KICHIK BIZNES SUB’EKTLARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARI ASOSIDA OSHIRISH......130**
**Tursunxo‘jayev Axrorxo‘ja Jamoliddin o‘g‘li**

**KO‘P O‘LCHOVLI KAMBAG‘ALLIK INDEKSINI HISOBLASH BO‘YICHA ALKIRE-FOSTER USULI VA TAVSIYALARI ......140**
**Urazbayev Raxmatjon Otajanovich**

**RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI HAMDA EKOLOGIK, IJTIMOIY VA BOSHQARUVNING INVESTITSIYALAR BILAN INTEGRATSIYASI ......151**
**Amonov Mirzohid Tuymuratovich**

**QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASIDA AGROSANOAT MINTAQAVIY-IQTISODIY MAJMUASI RIVOJLANISH DINAMIKASINI BAHOLASH ......161**
**Bekchanov Xalmurza Tursinbayevich**

**“MAHALLA YETTILIGI” TIZIMIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING IJTIMOIY AHAMIYATI ......172**
**Imomov Jamshidxon Odilovich, Muzaffarova Dilbar Mamalatif qizi, Islomova Dilrabo Salomovna**

**CHAKANA SAVDODA MARKETING VOSITALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH ......194**
**Ismoilov Shohjahon O‘tkir o‘g‘li**

**RAQOBAT SHAROITIDA OLIY TA’LIM TASHKILOTLARINING BOSHQVARUV MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH......200**
**Nishanbaev Behzod Qahramaonjon o‘g‘li, Saidov Mash’al Samadovich**

**INFLYATSIYA VA MAKROIQTISODIY BARQARORLIK O‘RTASIDAGI MUVOZANAT: NAZARIY YONDASHUVLAR VA STRATEGIK YO‘NALISHLAR ......210**
**Baratov Diyorbek Fazliddin o‘g‘li**

**SANOAT KORXONALARIDA RAQAMLI MARKETING FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING IJTIMOIY-IQTISODIY MOHIYATI......218**
**Rajabova Mohichehra Abduxoliqovna**

KICHIK BIZNESDA INNOVATSION MENEJMENT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI.......................................................................227
Salayev Jasurbek Komilovich

OLIY TA’LIM TASHKILOTLARIDA SIFAT MENEJMENTI TAMOYILLARI ASOSIDA KADRLARLAR TAYYORLASH STARTEGIYASINI ISHLAB CHIQISH..........................................................................................................237
Ahmedova Nigora Temur qizi, Saidov Mash’al Samadovich

ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ РАЗВИТИЯ КЛАСТЕРИЗАЦИИ................................248
Ахмедова Мадина Шухрат қизи

МАРКЕТИНГОВЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ КАК ИНСТРУМЕНТ ФОРМИРОВАНИЯ КЛИЕНТСКОЙ СТРАТЕГИИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ..........................................................................................................258
Кахрамонов Хуршиджон Шухрат угли, Маннабова Хулкар Фарход кизи

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МАРКЕТИНГОВЫХ СТРАТЕГИЙ В ПОВЫШЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ..................................................................................................267
Рахимова Тамила Баходур кизи

RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORI RIVOJLANISHINING ASOSIY XUSUSIYATLARI ............................................279
Ibodullaev Abror Axrorovich

ЭКОНОМИЧЕСКАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ В ФОРМИРОВАНИИ И РАЗВИТИИ КЛАСТЕРОВ ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ..................285
Садриддинова Нигора Хусниддиновна

KIMYO KORXONALARI TASHQI IQTISODIY FAOLIYATIDA MARKETING STRATEGIYALARINI TANLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARINI ISHLAB CHIQISH.................................................................................................295
Akramov Bo‘ribek Faxriddin o‘g‘li

PANDEMIYA VA INQIROZLARLARNING IJTIMOIY SOHALARGA TA’SIRINI BAXOLASH ..........................................................................................304
Jumanov Eshmamat Turdiyevich, Ergashev Mirjon Yorqin o‘g‘li, Aslonov Muhammad Tosh o‘g‘li

QASHQARYO VILOYATINING IQTISODIY O‘SISHINI TA’MINLASHDA XORIJIY INVESTITSIYALARNI O‘ZLASHTIRISHNING IQTISODIY TAHLILI ..............................................................................................................................311
Azimov Allaberdi O‘rinovich, Begaliyeva Madina Abdusamatovna

TIJORAT BANKLARI MUAMMOLI KREDITLARNI KAMAYTIRISH MEXANIZMLARI .........................................................................................317
Jumanov Eshmamat Turdiyevich, Aslonov Muhammad Tosh o‘g‘li, Ergashev Mirjon Yorqin o‘g‘li

VARYING FORMS OF LEVERAGE ANALYSIS AND ITS USAGE ..................324
Abduqodirova Mohinur Anvar qizi

ROLE OF INSTITUTIONAL FRAMEWORKS IN FACILITATING INDIAN INVESTMENT IN UZBEKISTAN ........................................................................336
Abror Kucharov, Jyoti Meshram

TRANSPORT TIZIMINI SAMARALI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY ASOSLARI ....................................................................................................344
Fayzullayev Javlonbek Sultonovich

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA RAQAMLI MARKETING FAOLIYATINI TASHKIL ETISH ..........................................................................................357
Ergashxodjaeva Shaxnoza Jasurovna, Parpiyeva Gulhayo Ravshanbek qizi

KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISH ORQALI MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH OMILLARI ..................................................366
Jumanov Ruslanbek Bobojonovich

THE ROLE OF THE PROFESSION OF GUIDE INTERPRETERS IN TODAY’S WORLD .........................................................................................................373
Yaxshibayeva Raziya Imanali qizi

RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING AN’ANAVIY SANOATDA STRATEGIK QARORLAR QABUL QILISHGA TA’SIRI....................................380
Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbayevich, Tyurahanov Shamsitdin Djamshid o‘g‘li

AGROSANOAT MAJMUASINI RIVOJLANTIRISHDA IJTIMOIY INFRATUZILMASINING ROLI VA O‘RNI..........................................................389
Sultonov Sirojiddin Normurolovich

THE ROLE OF THE STATE IN THE DEVELOPMENT OF TOURISM IN UZBEKISTAN ..................................................................................................396
Olimova Sevara Komil kizi

QISHLOQ XO‘JALIGIDAGI XAVFLARNI BOSHQARISH STRATEGIYALARI: DEHQONCHILIKDAGI NOANIQLIKLARNI VA TAVAKKALCHILIKLARNI BARTARAF ETISH .........................................................................................406
Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbayevich, Mo‘minov Muslimbek Mirzoxid o‘g‘li

DEVELOPMENT OF THE ECONOMY OF UZBEKISTAN BASED ON INNOVATIVE ACTIVITIES..................................................................................416
Mukumova Nargis Nuriddinovna, Nasirov Dilshod Farhadovich, Toshimov Ulugbek Hakimovich

MOLIYAVIY SAVODXONLIK VA IJTIMOIY TARMOQLARNING IQTISODIY BARQARORLIKKA TA’SIRI..............................................................................424
Eshpulatova Muazzam Barnoyevna

ICHKI AUDITDA TAHLILIY AMALLARNI QO‘LLASHNING NAZARIY ASOSLARI ....................................................................................................435
Maxmudova Sharifa Elmurodovna

THE ECONOMIC SIGNIFICANCE OF ADALINE NEURAL NETWORKS IN FINANCIAL DECISION-MAKING ................................................................445
Mirzayev Shoxrux Normurod o‘g‘li

AHOLINING IJTIMOIY-IQTISODIY TURMUSH DARAJASINI OSHIRISHNI XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY TAHLILI ....................................................................................................454
**Raximov Anvar Norimovich, Annayev Abbos Baxtiyor o‘g‘li**

ULGURJI SAVDO MARKETINGINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI......460
**Xolmamatov Diyor Haqberdiyevich**

ELEKTR ENERGIYASI UCHUN TARIF REJALARINI LOYIHALASH ..........470
**Samiyev Shohrux Faxriddin o‘g‘li**

TA’LIM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSION LOYIHALARNI BOSHQARISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH.................................480
**Adxamova Komilabonu Ilxom qizi, Saidov Mash’al Samadovich**

IJTIMOIY MUHIM OZIQ-OVQAT MAHSULOTLAR NARXLARINING KELGUSI TENDENSIYALARINI PROGNOZLASHNI EKONOMETRIK TAHLILLAR ASOSIDA MODELLASHTIRISH ..............................................489
**Jumayev Olimjon Sadulloyevich**

MARKETING VA LOGISTIKA TAMOYILLARI ASOSIDA HUDUDLARDA AGROLOGISTIKA MARKAZLARINI RIVOJLANTIRISH................................511
**Xolmamatov Diyor Haqberdiyevich**

SANOAT KLASTERLARINING SHAKLLARI VA KLASTER SUBYEKTLARINING O‘ZARO KORPARATIV MUNOSABATLARI ..............522
**Mamadaliyev Anazxon Ziyodillayevich**

DEHQON BOZORI SAVDOSINING XARIDORLAR TALAB-EHTIYOJINI QONDIRISHDAGI O‘RNI VA ROLI..............................................................527
**Ivatov Irisbek**

QISHLOQ XO‘JALIGINI IXTISOSLASHISHINING INTENSIV RIVOJLANISHNI TA’MINLASHDAGI AHAMIYATI .........................................535
**Saburov Jumanazar Saliyevich**

CHAKANA SAVDO FAOLIYATIDA NEYROMARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH AHAMIYATI ...................................542
**Saminjonov Nurilloxon Abdubanno o‘g‘li**

SANOAT KLASTERLARI – SANOAT SALOHIYATINI OSHIRISHNING STRATEGIK YO‘NALISHI SIFATIDA ..........................................................549
**Sobirov Azizbek Avazbekovich**

NEFT VA GAZ RESURSLARIDAN FOYDALANISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.........555
**Xalimov Akmaljon Axmadovich**

OLIY TA’LIM TIZIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....................................................................561
**Xusniddinov Yorqinjon Muhiddin o‘g‘li**

APPLE KOMPANIYASINING MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH TAHLILI..................................................................................567
**Yaxyoxonov Niyozxo‘ja Baxroil o‘g‘li**

RAQAMLI MARKETINGNING ZAMONAVIY TURIZMGA TA'SIRI .............575
**Abduvaxidov Abdumalik Maxkamovich**

TOSHKENT SHAHRIDA BOLALAR VA O'SMIRLAR TURIZMINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINING ASOSIY TAMOYILLAR............584
**Islomova Dilrabo Salomovna**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDLARIDA BILIM IQTISODIYOTINING RIVOJLANISH DARAJASINI BAHOLASH UCHUN USLUBIY YORDAMNI SHAKLLANTIRISH ........................................................591
**Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich**

OLIY TA'LIM TIZIMINI MIQDOR VA SIFAT KO'RSATKICHLARI ASOSIDA BAHOLASH MEZONLARI VA KO'RSATKICHLARI.........................................602
**Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi, Bozorova Muazzam Hamid qizi,**

IHTTNING CRAM METODOLOGIYASI ASOSIDA TAHLIL (CHEXIYA TAJRIBASI)........................................................................................................608
**Hakimov Hakimjon Abdullo o'g'li**

SANOAT KORXONALARIDA TEXNIK TARTIBGA SOLISH TIZIMIDA SIFAT MENEJMENTIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH ...................615
**Raximov Ilyos Muydinovich**

MILLIY MODANING GLOBAL MADANIY VA RAQAMLI KOMMUNIKATSIYA UYG'UNLIGIGA ASOSLANGAN STRATEGIK MARKETING YONDASHUVI.........................................................................627
**Tuxtaeva Oydinoy Normamatovna**

RESEARCH ON THE EFFECTS OF INTEREST RATE, INFLATION RATE AND GROSS DOMESTIC PRODUCT (GDP) ON THE LEVEL OF FOREIGN DIRECT INVESTMENT (FDI) INFLOWS (EVIDENCE FROM UZBEKISTAN)...................................................................................................637
**Azimov Shakhzod**

OLIY TA'LIM MUASSASALARINING INNOVATSION TA'LIM LOYIHALARI ASOSIDA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH ..........................................649
**Eshov Mansur Po'latovich**

ENHANCING RETAIL PERFORMANCE: THE ROLE OF ECO-MARKETING STRATEGIES IN ACHIEVING ECONOMIC EFFECTIVENESS........................663
**Zilola Davronova G'ulomovna**

# QISHLOQ XO‘JALIGIDA PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASTERLARINI RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI

**Qurbonov Alisher Boboqulovich**
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti i.f.n. professor
e.mail: qurbonov7721@mail.ru/
ORCID: 0000-0002-3208-5657

**Annotatsiya**

Klasterning afzalliklaridan biri — trigger samarasi asosida tezda yangilanish imkoniyatini ta’minlashidir. Shu bilan birga, bu jarayon xaridorlarni bozordan ilgari uzluksiz rivojlanishni eslashga majbur etadi. Boshqa tomondan, klasterning barqarorligi uning tashqi va ichki salbiy buzilishlarga qarshi turish, mutanosib va izchil holatni saqlab qolish qobiliyati bilan belgilanadi. Uzoq vaqt davomida harakat nisbatan bir xil tuzilish, ishlash usuli va trayektoriya asosida amalga oshiriladi. Aynan klaster iqtisodiyoti biznes konsepsiyasini qayta ko‘rib chiqish, odatiy modellarni o‘zgartirish, o‘z faoliyat yo‘nalishingizni boshqacha tarzda belgilash va raqobatbardoshlikning yangi imkoniyatlarini topish uchun zamin yaratadi.

**Kalit so‘zlar:** klaster, sanoat klasterlari, mahalliy sanoat, tadbirkorlik, sinergetik samara, trigger samarasi, klasterlarning “erkin bozor” va “qutblar” nazariyasi.

**Аннотация**

С одной стороны, кластер позволяет быстро обновляться по триггерному эффекту. С другой стороны, при этом он заставляет покупателей помнить о своем постоянном развитии перед рынком. С другой стороны, устойчивость кластера определяется способностью противостоять внешним и внутренним негативным возмущениям, сохранять сбалансированное и стабильное состояние. В течение длительного времени движение имеет относительно ту же структуру, способ действия и траекторию. Именно кластерная экономика позволяет построить новую бизнес-концепцию, изменить привычные модели, иначе позиционировать себя и найти новые сферы конкурентоспособности.

**Ключевые слова:** Кластер, промышленый кластеры, местная промышленность, предпринимательство, синергетический эффект, триггерный эффект, «Свободный рынок» кластеров и теория «полярный».

**Abstract**

On the one hand, the cluster allows you to quickly update according to the trigger effect. On the other hand, in doing so, it forces buyers to remember their constant development in front of the market. On the other hand, the stability of a cluster is determined by the ability to withstand external and internal negative disturbances and maintain a balanced and stable state. Over a long period of time, movement has relatively the same structure, mode of action and trajectory. It is the cluster economy that allows you to build a new business concept, change the usual models, position yourself differently and find new areas of competitiveness.

**Keywords:** Cluster, industry clusters, local industry, entrepreneurship, synergistic effect, trigger effect, “Free market” of clusters and polar theory.

## KIRISH

Iqtisodiyotning globallashuvi natijasida to‘qimachilik ishlab chiqarish markazi Yevropa va AQShdan uchinchi dunyo mamlakatlariga, xususan, Janubi-Sharqiy Osiyo, Markaziy Osiyo va Janubiy Amerika davlatlariga ko‘chdi. Bloomberg agentligining ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yildagi quruq ob-havo oqibatida ko‘plab paxta yetishtirilishi mumkin bo‘lgan dalalar qurib qolgan. Natijada, jahon bozorida paxtaning o‘rtacha narxi 30 %ga, mato va kiyim-kechak mahsulotlarining narxi esa 20–30 %ga oshdi[1]. Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan yillik yalpi ichki mahsulot darajasi past bo‘lgan aksariyat rivojlanayotgan davlatlarda to‘qimachilik sanoati jadal rivojlanayotgan bir vaqtda, daromad darajasi o‘rtacha bo‘lgan mamlakatlar o‘z hududlarini, shuningdek, yaqin mintaqaviy bozorlarni ham to‘qimachilik mahsulotlari bilan ta’minlayapti.

O‘zbekistonda jahon tajribasiga asoslangan holda klasterlarni qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotiga joriy etish amaliyoti boshlangan. Bu orqali mamlakatning importga qaramligini kamaytirish, iqtisodiyotning diversifikatsiyasi va mahalliylashtirish orqali ichki ishlab chiqarishni rivojlantirish, shuningdek, eksport salohiyatini oshirish maqsad qilingan. “Yangi O‘zbekiston”ning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini ikki baravarga oshirish vazifasi belgilangan. Paxta-to‘qimachilik tarmog‘i bo‘yicha klasterlarni shakllantirish va ularning faoliyatini samarali tashkil etish iqtisodiyotni rivojlantirish hamda aholining farovon turmush darajasini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tarmoq ishchi kuchini ko‘p talab etuvchi sohalardan biri hisoblanadi. Shu bois, uni, ayniqsa xotin-qizlarni ish bilan ta’minlash masalasining samarali yechimlaridan biri sifatida baholash mumkin.

## ADABIYOTLAR SHARHI

Klaster — ma’lum bir hududda o‘zaro bog‘langan korxonalarning iqtisodiy aglomeratsiyasi obyekti sifatida hunarmandchilik ishlab chiqarish davridan beri ma’lum. Uning fandagi samarali usul sifatida talqin etilishi birinchi bo‘lib atoqli iqtisodchi olim A. Marshal asarlarida uchraydi. Marshal [1] ularni "mahalliy sanoat" deb atagan. Keyinchalik esa "sanoat hududlari" atamasi keng tarqaldi. Hozirda eng mashhur atama — "klaster" esa ancha keyin shakllangan. Klaster alohida iqtisodiy tizim sifatida qaralishi mumkin [2]. Bu esa ham davlat sanoat siyosatining rivojlanishiga, ham butun iqtisodiyotga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi [3].

Bugungi kunda klasterlar to‘lqinining kuchayishi asosan vertikal integratsiyalashgan kompaniyalarning parchalanish jarayonlari bilan bog‘liq. Buning sababi — mahsulotlar murakkabligining keskin oshganidir, avvalo mashinasozlik sohasida. Yakuniy mahsulotlarni yig‘ishda ishlatiladigan oraliq mahsulotlar va

---

[1] https://www.asiaplustj.info/ru/news/tajikistan/economic/20220822/tseni-na-hlopok-v-mire-rastut-a-tadzhikistan-sokratshaet-posevi

butlovchi qismlarning soni hamda assortimentining bir necha barobarga ko‘paygani natijasida barcha ishlab chiqarish bosqichlarini bitta korxona doirasida jamlash amaliy jihatdan samarasiz bo‘lib qoldi. Muqobil variant sifatida esa — mustaqil ishlab chiqaruvchilar o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli hamkorlik, ya’ni klasterlar shakllana boshladi.

Klaster yondashuvining asoschisi sifatida M. Porter klasterni “geografik jihatdan qo‘shni bo‘lgan, bir-biriga bog‘langan kompaniyalar va ular bilan aloqador boshqa tashkilotlar guruhi” deb ta’riflaydi[4]. Bunday yondashuvlar tarmoqlararo va tarmoq ichidagi sinergetik ta’sirni ifodalaydi.

## METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotni amalga oshirish jarayonida real sektorda klasterlarning rivojlanishiga ta’sir qiluvchi omillarni o‘rganish yo‘nalishida ilmiy izlanishlar olib borgan bir qator olimlarning ishlari nazariy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida ilmiy izlanishlarning dialektika nazariyasiga tayangan holda, tahlil va sintez, shuningdek, statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 12-dekabr PQ-4186-son “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uning eksport salohiyatini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 5-may PQ-5989-son “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini qo‘llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 16-oktabr PQ-5262-son “Raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-iyun 397-son “Paxta-to‘qimachilik ishlab chiqarishini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot natijalari muayyan darajada amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tarmoqni barqaror rivojlantirishning birinchi o‘ziga xos jihati — bu mamlakatimiz aholisining tayyor gazlama va trikotaj-tikuvchilik mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini to‘liq qondirish maqsadida xomashyoga chuqur ishlov berish va uni tayyor mahsulot ko‘rinishiga keltirish uchun to‘qimachilik sanoati quvvatlarini jadal rivojlantirish zaruriyatidir. Ikkinchi xususiyat — paxta-to‘qimachilik sanoatida texnologik jarayonlarning yuqori darajada intensivlashuvi va mehnat jarayonining o‘ziga xos tavsifga ega bo‘lishi hisobiga malakali ishchi kuchi ma’lum darajada yetishmayotganidir.

Qashqadaryo viloyatida paxta-to‘qimachilik klasterlari tomonidan 2023-yilda olingan daromad 4837,8 mlrd so‘mni tashkil etib, 2019-yilga nisbatan 34,2 martaga oshgan. Xarajatlar esa 29,1 martaga oshgan. Olingan foyda 2023-yilda 7,2 mlrd so‘mni tashkil qilgan. Biroq klasterlar 2019–2021-yillarda umumiy holda zarar ko‘rgan. Asosiy vositalarning hajmi 1789,2 mlrd so‘mga yetib, 2019-yilga nisbatan 10 martaga oshgan. Tovar-moddiy zaxiralardan foydalanish 79,2 martaga ortgan. Ularda ishlaydigan ishchilar soni 2023-yilda 7872 kishini tashkil etib, 2019-yilga nisbatan 40

%ga ko‘paygan. Bir ishchiga to‘g‘ri keladigan daromad 2023-yilda 0,6 mlrd so‘mni tashkil qilib, 2019-yilga nisbatan 24,4 martaga oshgan. Fond bilan qurollanganlik darajasi 2023-yilda bir ishchi hisobiga 0,2 mlrd so‘mni tashkil etib, 2019-yilga nisbatan 7,1 martaga oshgan.

Ushbu tahlillardan ko‘rinib turibdiki, Qashqadaryo viloyatida tashkil etilgan klasterlar dastlabki uch yillikda ishlab chiqarishni tashkil etish bo‘yicha qilingan xarajatlarning yuqoriligi sababli daromaddan oshib ketgan. Shu bois, sof foyda faqat keyingi ikki yilda ko‘zga tashlangan (1-jadval).

**1-jadval.**

**Qashqadaryo viloyatida to‘qimachilik klasterlarining 2019-2023-yillardagi samaradorlik ko‘rsatkichlari[1]**

| Ko‘rsatkichlar | O‘lchov birligi | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 | 2023-yilda 2019 yilga nisbatan o‘zgarish,marta |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Sotishdan tushgan daromad | Mlrd. so‘m | 141,2 | 211,2 | 1 152,5 | 3 412,8 | 4 837,8 | 34,3 |
| Xarajat | Mlrd. so‘m | 141,8 | 326,3 | 1 204,0 | 3 317,1 | 4 125,8 | 29,1 |
| Sof foyda | Mlrd. so‘m | -0,6 | -115,1 | -51,5 | 95,7 | 712,0 | X |
| Rentabellik,% | Mlrd. so‘m | X | x | x | 2,9 | 17,3 | X |
| Asosiy vositalar | Mlrd. so‘m | 178,3 | 713,4 | 1 012,6 | 136,6 | 1 789,2 | 10,0 |
| Tovar moddiy zaxiralar | Mlrd. so‘m | 49,4 | 695,2 | 1 934,3 | 2 219,6 | 3 912,8 | 79,2 |
| Ishchilar soni | Kishi | 5 596,0 | 6 383,0 | 7 212,0 | 8 159,0 | 7 872,0 | 1,4 |
| Bir ishchi hisobiga olingan daromad | kishi/mlrd | 0,0 | 0,0 | 0,2 | 0,4 | 0,6 | 24,4 |
| Fond bilan qurollanganlik darajasi | kishi/mlrd | 0,0 | 0,1 | 0,1 | 0,0 | 0,2 | 7,1 |
| Fond qaytimi | birlik | X | x | x | 1,4 | 2,5 | X |

Vaqti-vaqti bilan o‘o‘zgarib turadigan mashina-qo‘l mehnati, bir xil tarzda bajariladigan ko‘p sonli qo‘l operatsiyalari, ko‘p stanokchilikda mashinalarga xizmat ko‘rsatish marshrutlarining mavjudligi kabi katta salmoqqa ega bo‘lgan jismoniy mehnat sarfi mehnat xarakterini o‘zgartirish orqali mehnat unumdorligini oshirish imkoniyatlari mavjudligini ko‘rsatadi.

Paxta-to‘qimachilik sanoatining tarmoqqa xos xususiyatlari va mehnat resurslaridan foydalanishni tavsiflovchi jihatlaridan kelib chiqib aytish mumkinki, eski texnologiyadan foydalangan holda tarmoqda mehnatni va ishlab chiqarishni tashkil etishni yaxshilash, hamda intensivlashtirish orqali mehnat unumdorligini oshirish imkoniyatlari cheklangan. Bunday sharoitda butun texnologik jarayonni, mehnatni va

[1] Muallif ishlanmasi

ishlab chiqarishni tubdan oʻzgartiruvchi, yangi texnikaviy asosdagi texnika va texnologiyalarni joriy etish tarmoqda mehnat unumdorligini oshirishning muhim manbaiga aylanishi mumkin.

Paxta-toʻqimachilik sanoatini barqaror rivojlantirishda klasterlashning ahamiyati katta boʻlib, unumdorlik va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish quyidagi omillar orqali amalga oshiriladi:

- Dastgohlar unumdorligini bir necha marta oshirish hamda tarmoq korxonalarida xomashyodan foydalanish samaradorligini yaxshilash imkonini beruvchi tubdan yangilangan mashinalarni joriy etish;
- Ishlab chiqarishni kompleks mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish, mehnat sarfini kamaytirishga xizmat qiluvchi elektron boshqaruv uskunalari bilan jihozlangan avtomatlashtirilgan boshqaruv liniyalarini joriy qilish;
- An’anaviy mashina va dastgohlarning texnologik parametrlarini yaxshilash, tezlik va unumdorlikni oshirish, oʻramlar va gʻaltaklar oʻlchamlarini kattalashtirish;
- Oʻtimlar sonini, mehnat va vaqt sarfini kamaytirishga xizmat qiluvchi texnologik jarayonlarni jadallashtirish;
- Asosiy va yordamchi ishchilarning qoʻl mehnatini mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi kunda paxtachilik tarmogʻida bir qator muammolar mavjud. Jumladan, xoʻjalik yurituvchilarning moliyaviy holati barqaror emas, bandlik muammosining samarali yechimlari yoʻq, jahon bozorida narxlar har kuni oʻzgarayotgan boʻlsa-da, mahsulot narxi asosiy xaridor tomonidan oldindan belgilanishi samarali bozor mexanizmini shakllantira olmayapti. Bu holat mavsum davomida hosil boʻladigan xarajatlar oʻzgarishini narxlar oshishi hisobiga qoplash imkonini cheklab qoʻymoqda.

Ushbu muammolarning oʻrnini qoplash maqsadida paxtachilik sohasiga klaster tizimi joriy etila boshlandi. Klasterlar administrativ usul bilan emas, balki xoʻjalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy manfaat va ehtiyojlaridan kelib chiqib shakllantirilishi maqsadga muvofiqdir. Zero, shakllangan klasterlar doirasida innovatsion yechimlardan jamoaviy foydalanish orqali tugallangan mahsulotlar yaratish va moddiy xarajatlar ulushini kamaytirish imkoniyati mavjud.

Shu oʻrinda, klasterlar faoliyatini boshqarishda barqaror iqtisodiy oʻsishning nazariy jihatdan chuqur asoslanishi, boshqaruv jarayonida davlat tashkilotlari va nodavlat tuzilmalarning ta’sirchanligi sezilarli darajada oshishiga xizmat qiladi.

Oʻzbekiston toʻqimachilik sanoatining ishlab chiqarish salohiyatini oshirish boʻyicha amalga oshirilayotgan ishlar doirasida, bir tomondan, paxta urugʻligini yetkazib beruvchilar va paxta tolasini yetishtiruvchilar, ikkinchi tomondan esa, paxta tolasini yetkazib beruvchilar va unga ishlov beruvchilar oʻrtasida moliyaviy manfaatdorlik va texnologik oʻzaro bogʻliqlikni takomillashtirish zarur.

Paxta-toʻqimachilik sanoatini barqaror rivojlantirishda klasterlashning roli quyidagilarda namoyon boʻladi: yangi, yuqori unumdorlikka ega dastgohlarni joriy etish; ishlab chiqarishni kompleks mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish; texnologik parametrlarni yaxshilash va ishlab chiqarish tezligini oshirish; mehnat va vaqt sarfini

kamaytirish; qo‘l mehnatini mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish orqali resurslardan samarali foydalanishga erishish.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Маршалл, А. Основы экономики / А. Маршалл. — М.: Издателство. "Прогресс", 1993. — Т.3. — 351 с.
2. Бабкин А.В., Шамина Л.К. Анализ исползования методических подходов в управлении экономическими системами // Научно-технические ведомости СПбГПУ. Серия «Экономика». — 2008. № 1 (53). – Страницы 18-22.
3. Бабкин А.В., Бахмутская А.В., Кудрявцева Т.Ю. Разработка Эффективный механизм регионалной промышленной политики // Экономический рост России. — 2013. — № 4 (61). — С. 204-2012
4. Портер, М. Конкуренция. Пер. с англ. / /. – М.: Издателский дом «Вилямс», 2005. – 608 с.
5. Богданов, А.А. Тектология – всеобщая организатsionная наука. [Текст] – Т. I, II. – М.: Экономика, 1989.]
6. Ансофф, И. Новая корпоративная стратегия / И. Ансофф. – СПб.: Изд-во «Питер», 1999. – 416 с.]
7. Синергетический подход в управлении [Электронный ресурс] // Режим доступа: http://www.viкtorova-ts.ru].
8. Савелева, Е. А. Создание промышленных кластеров и повышение конкурентоспособности Самарского региона / Е. А.Савелева // Вестник Самарского государственного аэрокосмического университета. — 2009. -№3 — С. 178-192.
9. Курбанов А.Б., Равшанов А.Д. Роль инвестиций в развитии предпринимательской деятельности // Экономика и социум. 2022. №10-1 (101). https://cyberleninкa.ru/article/n/rol-investitsiy-v-razvitii-predprinimatelsкoy-deyatelnosti (дата обращения: 24.10.2023).
10. Курбанов А.Б. Роль услуг в аграрном предпринимательстве // Экономика и социум. 2023. №4-1 (107). https://cyberleninкa.ru/article/n/rol-uslug-v-agrarnom-predprinimatelstve
11.

# Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

**Muharrir:** Xakimov Ziyodulla Axmadovich
**Ingliz tili muharriri**: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
**Rus tili muharriri**: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o‘g‘li
**Musahhih**: Karimova Shirin Zoxid qizi
**Sahifalovchi va dizaynerlar**: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o‘g‘li

**2025-yil, mart, 3-son**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Marketing” ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas’ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin.
Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: @marketinjournalbot
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: https://marketingjournal.uz

Marketing jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

**“Marketing” ilmiy, amaliy va ommabop jurnali** 2024-yil 15-martdan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**

“Marketing” ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710.** ГОСТ 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**